

# SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 2, ISSUE 4

APRIL 2021

# **SCIENCE AND EDUCATION**

**SCIENTIFIC JOURNAL**

**ISSN 2181-0842**

**VOLUME 2, ISSUE 4**

**APRIL 2021**

[www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)

56.	Tohirjon Xushnudbek o'g'li Ismailov Musiqa madaniyati darslarida rus kompozitorlari ijodi orqali o'quvchilarning estetik didini rivojlantirish	336
57.	D.A.Karimova, M.H.Tursuntasheva O'zbekona urf-odatlar orqali ekologik ta'lif-tarbiyani shakllantirish	341
58.	Shaydullo Bekqulovich Turopov, Qudrat Shaydulloyevich Bekqulov Shaxnoza Abdumitalibovna Boizaqova O'quv jarayonida talabalarga ko'rinishlar mavzusni tushuntrishda detal modelini o'ziga qarab o'rganishning ahamiyat	345
59.	Munavvara G'ayratjon qizi Raufjonova, Navruza Botir qizi O'ktamova Kichik yoshdagи bolalarga til o'rgatish metodikalari yohud har xil qo'shiq bilan qiziqtirib o'rgatish	353
60.	Komila Mamayusupovna Mamadiyorova Elektron portfolio tizimining AQSh oliv ta'lif muassasalari amaliyotida qo'llanilishi	357
61.	Nafisa Odiljanovna Yakubova, A'zamjon Shodmon o'g'li Omonqulov Detallarni loyihalashga o'rgatish orqali o'quvchilarni ijodiy tasavvurini oshirish	364
62.	Jaloliddin Sariyevich Xolmuratov, Roza Shuxratovna Allanazarova Xolilla Sariyevich Xolmuratov, Shahnoza O'ktamboy qizi Qodirova Maktabda informatika fan va o'quv predmeti sifatida o'qitilishi	369
63.	Maftuna Ibodullayeva Sodda gap tarkibida tobe komponentlarning sintaktik o'rmini aniqlash (ingliz tili misolida)	376
64.	Раббина Рахимовна Атажанова Теоретические основы развития творческих способностей младших школьников	381
65.	Shahlo Azamova, Feruza Mananova Maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikalari	387
66.	Roza Shuxratovna Allanazarova, Sayyora Sariyevna Xolmuratova Zamira Sariyevna Xolmuratova, Ikrom Husanov Jismoniy madaniyatning inson hayotidagi o'rni	392
67.	Malika Fayzulloevna Norova Kubravia is a mystic who has a special place in the teachings of tasavvuf	396
68.	Gavhar Sadikovna Omarova A new approach to teaching the subject "law" in the system of continuing education (on the example of the system of secondary special education)	403
69.	Dilbar Ortikovna Ortikova The role of the family in a healthy lifestyle	410
70.	Hafiza Fayzullayevna Islomova Benefits of using innovative technologies in an activities of sports teachers	415
71.	Акром Абролович Ахмедов Особенности использования информационных технологий в системе подготовки по физической культуре и спорту	419
72.	M.Berdiyeva, Saltanat Bo'ranova Maktabgacha va boshlang'ich ta'lilda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari	425
73.	Gulkhayo No'monjon qizi Saydakhmedova Integrating new pedagogical technologies into teaching foreign languages for eliminating phonetic interference	430
74.	Наргиза Адиловна Пиримова 1-4 sinif maktab y'kvchilariida gimnastika mas'ufulotlarini xarakatli y'inyllar orqali y'tkazishning ilmий асослари	434
75.	Dilfuzaxon Ilhomjon qizi Kazakbayeva, Sobirjon Solijon o'g'li Qodirov Ingliz va O'zbek tillarida "qulq" semantik maydoni konstituentlari tipologiyasi	441

## **Detallarni loyihalashga o'rgatish orqali o'quvchilarni ijodiy tasavvurini oshirish**

Nafisa Odiljanovna Yakubova  
A'zamjon Shodmon o'g'li Omonqulov  
azamjonomonqulov9@gmail.com  
Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Loyihalash – hamma sohalarda keng qo'llanilishi, texnika va xalq xo'jaligi buyumlarini yaratishda alohida ahamiyatga ega ekanligi, yangidan yangi ixtiolar jamlanmasi bo'lib hizmat qilishi, detallarni qayta yaratish va tuzishdir.

**Kalit so'z:** Loyihalash, qobilyat, tasavvur qilish, fikrlash doirasini kengaytirish, ijodiy yondashuv, yangiliklar yaratish.

## **Enhancing students' creative imagination by teaching them to design details**

Nafisa Odiljanovna Yakubova  
Azamjon Shodmon oglu Amankulov  
azamjonomonqulov9@gmail.com  
Gulistan State University


**Abstract:** Design is widespread use in all fields, a special role in the creation of technical and economic products, the fact that it serves as a collection of new inventions, the creation and recreation of parts.

**Keywords:** design, ability, imagination, broadening one's horizons, creativity, innovation.

Ma'lumki, chizmachilik o'quv jarayoni o'quv materialining mazmuni texnikani o'rganishga, ishlab chiqarishda texnik ob'ektlar bilan chizma vositasida tanishishga, uni tahlil qilishga qaratilgan. Xozirgi zamonda ishlab chiqarishda zarur bo'lgan yaratuvchanlik faoliyatiga xos bo'lgan sifatlarni talab qilmoqda. Ayrim metodislarning fikricha, yangi loyihaning ustida ish olib borayotganda, loyihaning detallari haqida tasavvur, dastlab fikran yaratilib, uning chizmasi konstruktoring g'oyasini ifodalovchi vositasi bo'lib xizmat qiladi. E.L.Surinning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, konstruktor chizmaga murojat qilmay turib, o'z ongida narsanining tasvirini aniq va ravshan saqlab qola olmaydi. Har bir ishning birinchi bosqichidayoq, loyihaning faqatgina asosiy elementlari paydo bo'ladi. Chizmalar bilan ishslash jarayonida bu elementlarga aniqlik kiritiladi. Shunday qilib, loyihalash jarayonida


konstruktor olg'a surgan g'oya konstruktiv tomonidan jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Bu ishning, ish jarayonida bir – biri bilan uzviy bog'lanishi lozim bo'lган fazoviy faraz va bajaraladigan chizmalar o'zaro birini, ikkinchisi boyitib borishiga olib keldi. Shundan ko'riniб turibdiki ular bir – biri bilan chambarchas bog'liqdir. Loyihashdek ijodiy yaratuvchanlik jarayonining hal qilishda grafik faoliyat katta ro'l o'ynaydi. Xalq xo'jaligining turli sohalarda yangi buyumlarning ixtiro qilish amaldagilarni takomillashtirish yoki qayta ishlab chiqish "loyihalash" deyiladi. Loyihalash doir ishlar har doim grafik tasvirlar, ya'ni chizmalar, eskizlar, texnik rasmlar chizish bilan bog'liq bo'ladi. Har qanday buyumga yangi konstruktiv element kiritilsa, unda qanday o'zgarish ro'y berishini ko'z oldingizga keltirib ko'ring. Konstruktiv elementlar, ya'ni teshiklar, o'yiqlar shaklini biroz o'zgartirish, burchaklarni yumaloqlash kabilar kiritilib, yangi foydali sifatlar berish orqali buyumning og'irligini kamaytirish, pishiqligini oshirish, ishlov berishni soddalashtirish, foydalanishda qulaylik, ko'rinishini chiroyli bo'lishiga erishish mumkin. Shunday qilib loyihalash deganda mehnat unumdarligini oshirish uchun texnik – texnologik sharoitlar asosida butunlay yangi ob'ektlar yaratish yoki amaldagisini rekonstruksiyalash kabi texnik hujjatlarning to'plamini ishlab chiqilishini tushinish mumkin. Shuning uchun loyihalash, juda katta imkoniyatlarni hamda yangiliklarni qamrab olgan. Dunyodagi barcha buyumlarning shakillari, dizayini, loyihalashning yutug'idir.

Hozirgi davrda har bir buyumlarni qayta loyihalash orqali katta yutuqlarga erishish mumkin. Ayni vaqtda loyihalash orqali yaratilayotgan ixtiolar soni ko'plab topiladi. Bundan ko'riniб turubdiki, barchasi loyihalashning alohida o'rni borligini bildirmoqda. Shuning uchun maktablarda o'quvchilarni zamon talabiga mos ravishda ya'ni zamonaviy bilim va yangiliklarga boy dars jarayonini olib borish orqali ularaga sifatli va samarali bilim berish kerak. O'quvchilarni loyihalashga o'rgatishning birinchi bosqichi bu detallarni qayta loyihalash.Ya'ni chizmadagi berilgan detallarni shaklini o'zgartirish ularga yangilik kiritish orqali ularning loyihalashga bo'lган tushinchasini oshirish lozim.Qachonki o'quvchi har bir narsa haqida tushinchcha hosil qila olsagina undan sifatli bilim va natija kutish mumkin. Dars jarayonida o'quvchilarga qanday qilib chizmalarni loyihalash mumkinligini tayyor chizma detallar orqali ko'rastish lozim. Misol uchun 1 – chizma a) detal shakli berilgan. Unda loyihalashning o'quvchilar uchun soddalashtirilagan holatda ya'ni nuqtalar orqali tushinarli tarzda 1 – chizma b) ko'rsatilgan. Bu detal orqali o'quvchilarni loyihalashga bo'lган tasvvurini oshirishga hamda loyihalash haqida tushinchaga ega bo'lishga o'rgatadi. Detal shaklini fikran o'zgartirib, uni qayta ijodiy loyihalangan holatini tassavur qilish o'quvchini fikrlash qo'zg'atuvchanligini o'stiradi.



1 – chizma.

Dars jarayonida o'quvchilarni yanada darsni o'zlashtirishda, ularga loyihalashga oid detallar berilsa ularni qanchalik darsni yahshi o'zlashtiriyotganligini bilib olish mumkin. Loyihalashga doir masalar, detallar o'quvchilarning texnik – texnologik ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Endi o'quvchilarga vazifa qilib beriliyotgan detallar misolida tayyor detallarni misol tariqasida berilsa, ularning berilgan vazifani qanchalik to'g'ri bajarishga hizmat qiladi. Misol uchun 2 – chizma a) da detal berilgan. Detalning vaznnini kamaytirish maqsadida uning shakli geometriyasi qisman o'zgartirilgan. Natijada 2 – chizma b, c, d lardagi ko'rsatilganday ko'rinishga keladi.




2 – chizma.

Endi o'quvchilarga shu kabi detallar vazifa qilib berilsa, vazifani alo darajada bajarishga hizmat qiladi. Vazifa detallarning ko'rinishlari orqali ularning vaznnini kamytiring (3 – chizma, A, B, C).

Bu vazifalar orqali o'quvchilarni ham ijodiy qobiliyatini, ham tassavurini oshirishga, yanada darsni o'zlashtirishga hizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchilarini dars jarayonida ularga tayyor detallar beribkina qolmay, endi ularning o'zlari yangi detallar yaratishiga imkoniyat berishi lozim. Bunda ularga "plastilin" orqali detal yaratish va ularni loyihalash vazifasi beriladi. Bundan maqsad ular endi o'z qo'llari bilan yartgan detallarni his qila olishi va o'quvchilarni qanchalik tasavvurga ega ekanligini bilib olishi mumkin. O'quvchilar bu vazifa orqali yanada fikrlashga,

tasavvur qilishga, va ijodiy qobiliyatini shakillantirishga erishiladi. Endi ular loyihalash nima ekanligini, loyihalash orqali nima qila olish mumkinligi haqida tushinchaga ega bo'ladi. Bunday tushinchaga ega bo'lgan o'quvchi darsni yahshi o'zlashtira olgan deb ayta olish mumkin.



Dars jarayonidan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni loyihalashga bo'lgan qiziqishini oshirish, tasavvurini o'stirishga qaratilgan. Necha davrilardan, zamonlardan beri barcha uy – ro'zg'or xo'jalik buyumlarining chiroyli ko'rinishga va ixcham shaklga kelishida loyihalashning o'rini kattadir. Shundan ko'rinish turibdiki loyihalash orqali ancha muvaffaqiyatlarga erishish va yangiliklar yaratish mumkin. O'quvchilarni loyihalashga o'rgatish orqali kelajakda ular ham shu kabi yangiliklar yaratishi va muvaffaqiyatlarga erishishga, hizmat qilishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zA- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojatnomasi. 2020yil 24-yanvar.
2. U. Abdullayev. Chizmägeometriya va chizmachilik asoslari. 1999 y.
3. "Umumiyo o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik ta'limi konsepeksiyasi" 1995-y.
4. A.Umronxo'jaev. "Maktabda chizmachiliko'qitishni takomillashtirish" Toshkent, O'qituvchi – 1993-y.
5. I.Rahmonov, A.Valiyev "Chizmachilik" 2011 – y
6. V.O.Gordon "Texnik chizmachilik asoslari" 1934 – y
7. V.I.Kuzmenko, S.I.Dembinskiy "O'rta maktablarda chizmachilik o'qitish metodikasi" 1965 – y

### References

1. UzA - Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. January 24, 2020.
2. U. Abdullayev. Basics of drawing geometry and drawing. 1999 y.
3. The Concept of Drawing Education in General Secondary Schools, 1995.
4. A.Umronxo'jaev. "Improving the teaching of drawing at school" Tashkent, Teacher - 1993.
5. I.Rakhmonov, A.Valiyev "Drawing" 2011
6. VO Gordon "Fundamentals of Technical Drawing" 1934
7. VI Kuzmenko, SI Dembinsky "Methods of teaching drawing in secondary schools" 1965

SCIENCE AND EDUCATION  
SCIENTIFIC JOURNAL

# CERTIFICATE

CONFIRMS THAT

**YAKUBOVA NAFISA ODILJANOVNA**

PUBLISHED THE ARTICLE TITLED

**DETALLARNI LOYIHALASHGA O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNI IJODIY  
TASAVVURINI OSHIRISH**

IN VOLUME #2 ISSUE #4, APRIL 2021

ISSN 2181-0842



WWW.OPENSOURCE.UZ

EXECUTIVE SECRETARY

TUSMATOVA N.



**CYBERLENINKA**



**Google**  
Scholar



**CiteFactor**  
Academic Scientific Journals



**RESEARCHBIB**  
ACADEMIC RESOURCE INDEX



Bielefeld Academic Search Engine



DIRECTORY OF  
OPEN ACCESS  
JOURNALS



GLOBAL SERIALS DIRECTORY

SCIENCE AND EDUCATION  
SCIENTIFIC JOURNAL

# CERTIFICATE

CONFIRMS THAT

**OMONQULOVA A'ZAMJON SHODMON O'G'LII**

PUBLISHED THE ARTICLE TITLED

**DETALLARNI LOYIHALASHGA O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILARNI IJODIY  
TASAVVURINI OSHIRISH**

IN VOLUME #2 ISSUE #4, APRIL 2021

ISSN 2181-0842



WWW.OPENSOURCE.UZ

EXECUTIVE SECRETARY

TUSMATOVA N.



**CYBERLENINKA**



**Google**  
Scholar



**CiteFactor**  
Academic Scientific Journals



**RESEARCHBIB**  
ACADEMIC RESOURCE INDEX



Bielefeld Academic Search Engine



DIRECTORY OF  
OPEN ACCESS  
JOURNALS



GLOBAL SERIALS DIRECTORY